



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOP1093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

**TURKIYADAGI ETNIK O'ZBEKLAR SHEVASI O'RGANILISHINING
DOLZARBLIGI**
**THE RELEVANCE OF THE STUDY OF THE ETHNIC UZBEK DIALECT
IN TURKEY**

Aziza ABDUSAMATOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktorant
10.52773/tsuull.conf.2026/FPBH3577

Annotation. *Migration processes enhance the communication of different languages, resulting in speech patterns taking shape in a diaspora environment becoming an important object of research for linguistics. The dialect of the Uzbeks, who went to Turkey with different fates, is no exception. This issue has been covered to one degree or another in the literature.*

This article reflects on the study of the dialect of ethnic Uzbeks living in Turkey. This information on the one hand forms the basis for a closer study of the degree of assimilation of Turkish languages of Uzbek dialects, moreover, its results are important for linguistic contactology, areal linguistics and dialectology.

Key words: *diaspora, language contact, Uzbek language, ethnic Uzbek dialect, Turkish language, assimilation, bilingualism, Turkic languages.*

Bugungi globallashuv davrida turli xalqlarning boshqa mamlakatlarga migratsiyasi natijasida u yerlarda diaspora hosil qilishi va shu muhitda amalda bo'lgan til hodisalarini o'rganish tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy yaqinligi sababli turli hududlardagi shevalar va ularning qay shaklda rivojlanishi jarayonlari ilmiy ahamiyatli mavzular qatorida turadi. Shu ma'noda Turkiyadagi o'zbek shevalarining yangi ijtimoiy-madaniy muomalada bo'lish jarayonida ular shevasiga xos bo'lgan o'zgachaliklar qiziqish uyg'otadi.

O'zbek va turk tillari bir til oilasiga mansub bo'lib, tarixiy jihatdan umumiy ildizga ega hisoblanadi. Biroq ular uzoq muddat turli geografik hududlarda mustaqil ravishda rivojlangan. Shu sababli ushbu tillarning bevosita kontaktga kirishishi turkiy tillar o'rtasidagi yangi lingvistik jarayonlarni o'rganish lozimligini keltirib chiqarmoqda.

Tilshunoslikda diaspora areali tadqiqot obyekti bo'lgan. Diaspora jamoalari tilshunoslik nuqtai nazaridan noyob tadqiqot obyekti bo'lib, ular nutqini o'rganish orqali fonetik, morfologik va leksik o'zgarishlar aniqlanishi mumkin [Fishman, 2001; Thomason, 2001]. Chunki bunday muhitlarda til odatda boshqa til bilan uzluksiz kontaktga kirishgani va buning natijasida fonetik, morfologik hamda leksik darajada turli o'zgarishlar yuz

bergan bo'ladi. Ayniqsa, qarindosh tillar o'rtasidagi kontakt jarayonlarini tahlil qilish turkiy tillar tipologiyasi va areal lingvistika uchun muhimdir [Johanson, 2002].

Turkiyada istiqomat qilayotgan o'zbeklar turli tarixiy davrlarda Markaziy Osiyo va Afg'oniston hududlaridan ko'chib borgan bo'lib, ular o'zlari bilan til, madaniyat va an'analarni ham olib borgan. Natijada diaspora hududida o'zbek tilining ayrim sheva xususiyatlari saqlanib qolgan holda, turk tili ta'sirida yangi fonetik, leksik hamda grammatik o'zgarishlar yuzaga kelgan. Bu jarayonlar tilshunoslikning bir emas, bir nechta yo'nalishlari nuqtai nazaridan muhim ilmiy material hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Turkiyadagi etnik o'zbeklarning migratsiya jarayoni va sabablari bir qancha ishlar tarkibida sotsiologik, tarixiy jihatdan o'rganilgan, chunonchi, Adeeb Khalid Markaziy Osiyo tarixini o'rganar ekan, hududdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan migratsiya jarayonlarini batafsil tahlil qiladi. Uning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo xalqlarining boshqa hududlarga ko'chishi tarixiy kontekstda ko'rib chiqiladi [Adeeb Khalid, 2021]. Marleno Laruelle tomonidan o'rganilgan Markaziy Osiyo diasporalari migratsiya jarayonlari va ijtimoiy integratsiya har taraflama ochib beriladi [Laruelle M, 2015]. Turkiy xalqlar, ularning tarixiy rivojlanish jarayonlari haqida muhim tadqiqotlar olib borgan olimlardan yana biri Edward Allworth hisoblanadi. Uning ishlari Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy va madaniy taraqqiyotini yoritishda muhim ahamiyatga egadir [Edward Allworth, 1994]. Shu bilan birga, turkiy tillar tipologiyasi va tarixiy lingvistikasi sohasida Talat Tekin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati turkiy xalqlar migratsiyasi, tarixiy jarayonlar va sotsiologik masalarga bag'ishlanganligini ta'kidlaymiz. Lekin bu ishlarda tildagi o'zgarishlar, ya'ni assimillatsiya xususiyatlari o'rganilganiga doir yetarli ilmiy tadqiqotlar uchramaydi. O'zbek shevalarining turk tili bilan kontakti natijasida yuzaga kelgan fonetik, morfologik va leksik o'zgarishlar hali maxsus ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan. Mazkur tadqiqot turk va o'zbek tillaridagi kontakt natijalari, avval aytilganidek, areal lingvistika uchun faktik materiallar berishi bilan ahamiyatlidir.

Til kontaktlari masalasi lingvistik kontaktologiyaaning asosiy yo'nalishidir. Tilshunoslikda qarindosh tillar kontakti alohida masala hisoblanadi, chunki qarindosh tillar o'rtasidagi konvergensiya nisbatan kamroq tadqiq qilingan. O'zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo'lsa-da, ularning fonetik tizimi, grammatik qurilishi va leksik tarkibida sezilarli farqlar mavjud. Turkiyadagi o'zbeklar nutqi qarindosh tillar konvergensiyasini o'rganish uchun muhim material beradi. Buning boisi shundaki, turk tili turkiy tillar oilasining o'g'uz guruhiga mansub, o'zbek tili esa ichida qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalarini jamlaydigan tildir va bu uch lahjaning Turkiya hududida qay daraja tarqalishini o'rganish ilmiy tadqiqotning yana bir dolzarb masalasi bo'la oladi. Til kontaktlari uchta asosiy jarayonni keltirib chiqaradi [Thomason&Kaufman, 1988]:

fonetik yaqinlashuv (turk tiliga xos talaffuz elementlarining o'zbek sheva vakillari nutqiga kirishi);

grammatik moslashuv (turk tilining sintaktik yoki morfologik xususiyatlari o'zbeklar nutqida namoyon bo'lishi);

leksik almashuv hodisalari kuzatilishi mumkin (kundalik nutqda turk tilidan olingan so'zlar faol ishlatiladi).

Turkiyadagi o'zbeklar shevasi diasporadagi nutqiy jarayon bilan bevosita bog'liq ravishda o'zgarishga uchraydi. Diaspora tili odatda quyidagi muhim bosqichlardan o'tadi: til aralashuvi; dominant tilga moslashuv; ayrim hollarda til almashinuvi; ikki tillilik.

Tilshunoslikda diaspora nutqi ko'pincha yangi til shakllarining paydo bo'lishi yoki mavjud xususiyatlarining o'zgartirishi bilan tavsiflanadi [Fishman, 1991]. Turkiyada yashayotgan o'zbeklar nutqida turk tili dominant bo'lib, uning ta'siri natijasida fonetik, morfologik va leksik konvergensiya jarayoni yuzaga kelishi tabiiy, ya'ni ayrim unlilar talaffuzining turk tiliga yaqinlashuvi, urg'u tizimining o'zgarishi kabi holatlar uchrashi mumkin.

Turkiyadagi o'zbek diasporasi nutqi ikki tillilik sharoiti tufayli kundalik muloqotda o'zbek tilini va turk tilini birgalikda ishlatish, masalan, gapning boshlanishi o'zbekcha, oxiri turkcha bo'lishi yoki turkcha grammatik birliklarning o'zbekcha gap tarkibida qo'llanish holatlari bo'lishi mumkin. Bu esa diaspora nutqida ikki tillilik fenomenini aniqlash imkonini beradi.

So'nggi yillarda turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalar kuchaymoqda. Bu jarayonda turkiy tillar o'rtasidagi yaqinlashuv masalasi muhim bo'lib qolmoqda. Masalan, Organization of Turkish States (Turkiy Davlatlar Tashkiloti) – turkiy davlatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlikni ta'minlash uchun qo'yilgan muhim qadamlardan bo'ldi. Turkiyadagi etnik o'zbeklarning hozirgi holati, bir arealdagi o'zbek va turk tilining real kontakt shakllarini o'rganishga bu tashkilotning yuzaga kelishi ulkan siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Areal lingvistikada interferensiya va til ta'sirlari jarayonida til qarshiligi degan tushuncha mavjud [S.Ashirboyev, 2023]. Bu qonuniyatning dominant til jarayonida qanday kechishi masalasi kelib chiqadi. Turkiyadagi o'zbeklar nutqining o'rganilishi esa tilni saqlash strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim. Dominant til muhitida til ko'pincha dominant til ta'siri natijasida asta-sekin yo'qolib boradi. Shuning uchun bunday tadqiqotlar tilni saqlash strategiyalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'la oladi.

Turkiy tillar tarixan keng hududda tarqalgan areal tizimini tashkil qiladi. O'zbeklarning Turkiya hududlariga migratsiyasi (albatta davrlari hisobga olinadi) shu areal tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Turkiyadagi o'zbeklar nutqi:

yangi arealning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;

arealdagi til qarshiligining qoldiqlarini aniqlashni o'rganishda muhim material bo'la oladi.

Ushbu ishda respondentlar nutqidagi: og'zaki nutq namunalari, dialektal o'zgachaliklar, kod-almashuv hodisalari o'rganiladi.

Turkiyadagi o'zbeklar uchun so'z o'zlashtirish manbayi turk tili ekanligi isbot talab qilmaydi. Turk tilidan kirib kelayotgan so'zlar sheva vakillari nutqida turli mavzuviy guruhlarga aloqadordir: maishiy soha so'zlari, ma'muriy (boshqaruv) terminlari, kundalik muloqot birliklari. Bu jarayon ayniqsa yosh avlod nutqida kuchli ekanligi seziladi. Bular leksik assimilyatsiya jarayonini o'rganishga imkon beradi.

Turkiyada yashayotgan etnik o'zbeklar shevasini o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot turkiy tillar o'rtasidagi kontakt jarayonlarini aniqlash, etnik o'zbeklar shevasining diaspora muhitida rivojlanish xususiyatlarini tavsiflash hamda o'zbek tilining yangi ijtimoiy sharoitdagi holatini yoritishga xizmat qiladi. Shu sababli Turkiyadagi etnik o'zbeklar shevasining lingvistik, dialektal jihatdan o'rganilishi turkiy tillar tadqiqotida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan dabiyyotlar

1. Adeeb Khalid. *Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present*, Princeton University Press, 2021.
2. Ahmet Bican Ercilasun. *Türk Lehçeleri Grameri*. – Ankara: Akçağ, 2004.
3. Appel, R., & Muysken, P. *Language Contact and Bilingualism*. Amsterdam: Benjamins, 2006.
4. Ashirboyev Samixon. *Areal lingvistika*. – Toshkent, 2023.
5. Bernt Brendemoen. *The Turkish Dialects*. Oslo, 2002.
6. Edward Allworth. *Central Asia in Historical Perspective*. Duke University Press, 1994.
7. Erhan Giray. *Türkiye'de Özbek Türkçesi üzerine yapılmış bilimsel kitap ve lisansüstü çalışmalar (1985-2019). O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari*. – Toshkent, 2019.
8. Johanson L. *The Turkic Languages*. Routledge, 2002.
9. Laruelle M. *Central Asian Diasporas*. Routledge, 2015.
10. Selahattin Tolkun. *Türkiye'deki Özbeklerin Dil Özellikleri*. I.Uluslararası Türk diyalektolojisi çalıştayı, Gazi Magosa/Kıbrıs, 15-20 Mayıs 2008.
11. Аширбоев Самихон. *XXI асрда ўзбек тили ва унинг қардош республикалардаги тақдири. O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman*. – Toshkent, 2019.